



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 360 sahifa,
12-iyun, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха"	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammat qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari	98
Umurov Sharif Rajabovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash	102
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта	106
Панжиева Назокат Нормаматовна	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации	111
Тураева Дилфуза Даминовна	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	116
Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy	120
Inomidinova Dildorxon Ikramovna	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
M. S. Usmonova	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners	130
Tahirova Shaxribonu	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
Хамидова Нигора Тулкуновна	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli	142
Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiritual paradigmalarining mohiyati	151
Ashurova Gulru	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract	162
Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida)	170
Jabborova Muslima Toxirovna	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari	175
Karimova Barno Ergashevna	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari	178
Mamanazar Djumayev	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari	187
Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi	191
Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
Nishanova Zulfizar Yashin qizi	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish	199
Nozimabonu Tojiboyeva	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
O'ktamova Shohida Odilbek qizi	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi	214
Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	222
Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish	228
Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar	233
N. S. Mirbabayeva	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari	237
Kamalov Rustam Azizovich	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
Shamsiyeva Sevara Yusupovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	244
Tangirqulov Elmurod Aliyarovich	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish	248
Toshtemirova Sarvinoz Obidovna	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida	251
Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
G'ofurova Umida O'tkirbek qizi	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	262
Xalikova Xurshida Abdullayevna	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf	272
Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloeva Dilnura Samandarovna	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
Xudoyberdiyeva G. Sh.	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
Аманова А. А., Саттарова М.	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность	285
Каримова Наргиза Абдугафуровна	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	289
Toxirov Feruz Jamoliddinovich	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi	293
<i>Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari	300
<i>Xodjayeva Matlyuba Rustamovna</i>	
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish	304
<i>Hayitov Abdurasul Eshdavatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish	309
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Eshonqulova Uralbuvish Fayzullayevna</i>	
Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanish	312
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna</i>	
Метод параллельного переноса при делении угла с недоступной вершиной	315
<i>Эсонов Мунавваржон Мукимжонович</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida geometrik masalalarni yechish	318
<i>Sobirova Dinora Umidjon qizi</i>	
O'zbekistonda raqamli jamiyat sharoitida internetdan foydalanish savodxonligini oshirish muammolari va yechimlari	323
<i>Boboqulova Dildora Xolmamat qizi</i>	
Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyatida jadid ayollar ta'limiy qarashlarining namoyon bo'lishi	326
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Formation of Environmental Protection and "Green" Economy Concepts among School-Age Youth	329
<i>Kholmominova Oygul Jumayevna</i>	
Boshlang'ich sinf darslarining samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlar va ularning ahamiyati	333
<i>Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi</i>	
Bo'lajak surdopedagoglarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish	338
<i>Raximova Muniraxon Iloxomovna</i>	
XX asrning boshlarida Buxoroda jadidchilik harakati asoschilarining ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi	342
<i>Safarova Gulzoda Ismoilovna</i>	
O'smirlarda agressiv holatlar va deviant xulq-atvorning psixologik xususiyatlari	346
<i>Shaymardanova Nargiza Maxmanaxarovna</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida sportchilarning musobaqaoldi psixologik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	349
<i>Yigitaliyev Abubakir Farxodjon o'g'li</i>	
Shaxs rivojlanishida motivlarning ahamiyati: psixologik tahlil	354
<i>Sh. Mirabdullayeva</i>	

SAIDA SHERAHMAD QIZI HAYOTI VA FAOLIYATIDA JADID AYOLLAR TA'LIMIY QARASHLARINING NAMOYON BO'LISHI

Ergashova Mehriniso Husniddin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika yo'nalishi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyati jadid ayollarining ta'limiy qarashlari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Unda XX asr boshlarida xotin-qizlarning ilm olishga intilishi, xorijda tahsil olish jarayoni, muallimalik faoliyati hamda milliy ma'rifatparvarlik g'oyalarning ayollar hayotidagi ifodasi yoritiladi. Saida Sherahmad qizi misolida jadid ayollarining ilm-ma'rifatga sadoqati, milliy o'zlikni saqlashga intilishi va yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Saida Sherahmad qizi, jadid ayollar, ta'lim, ma'rifatparvarlik, muallimalik faoliyati, milliy uyg'onish, ayollar savodxonligi.

Abstract: This article analyzes the life and activity of Saida Sherahmad qizi in connection with the educational views of Jadid women. It examines women's aspiration for knowledge in the early twentieth century, the process of studying abroad, teaching activity, and the expression of national enlightenment ideas in women's lives. Through the example of Saida Sherahmad qizi, the article reveals Jadid women's devotion to education, their commitment to preserving national identity, and their role in the upbringing of the younger generation.

Key words: Saida Sherahmad qizi, Jadid women, education, enlightenment, teaching activity, national revival, women's literacy.

Аннотация: В данной статье анализируются жизнь и деятельность Саиды Шерахмад кизи в связи с образовательными взглядами джадидских женщин. Рассматриваются стремление женщин к получению знаний в начале XX века, процесс обучения за рубежом, педагогическая деятельность и отражение идей национального просвещения в судьбе женщины. На примере Саиды Шерахмад кизи раскрываются преданность джадидских женщин науке и просвещению, стремление к сохранению национальной самобытности и их роль в воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: Саида Шерахмад кизи, джадидские женщины, образование, просветительство, педагогическая деятельность, национальное возрождение, женская грамотность.

KIRISH

Millat taraqqiyoti tarixini o'rganishda ma'rifatparvar ayollar faoliyati alohida ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki ayollarning ilm olishga intilishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va yangi avlod tarbiyasiga ta'siri milliy uyg'onish jarayonlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jadidchilik harakati aynan shu jihati bilan o'zbek jamiyati tarixida katta o'rin tutadi. Bu harakat vakillari ilm-ma'rifatni millatni taraqqiy ettiruvchi asosiy kuch deb bildilar, qizlar ta'limi va ayollar savodxonligini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratdilar.

Saida Sherahmad qizi ham ana shunday ma'rifatparvar ayollar safida e'tirof etishga loyiq siymolardan biridir. Uning yoshligidan ilmga qiziqishi, o'zbek qizlari uchun ochilgan bilim yurtida tahsil olishi, keyinchalik xorijda o'qishi va umrining davomida muallimalik faoliyati bilan shug'ullanishi jadid ayollariga xos bo'lgan bilimga chanqoqlik, jasorat va fidoyilikni namoyon etadi. U yashagan davrda qizlarning ta'lim olishi oson bo'lmagan bo'lsa-da, Saida Sherahmad qizi ilm yo'lini tanladi va o'z hayoti bilan ayollar ham jamiyat taraqqiyotida munosib o'rin egallashi mumkinligini ko'rsatdi.

Jadid ayollari faoliyatida eng muhim g'oyalardan biri millat kelajagini ma'rifat orqali yuksaltirish edi. Ular qizlarning savodli bo'lishi, oilada va jamiyatda ongli, bilimli, tarbiyali avlodni voyaga yetkazishi zarurligini ilgari surdilar. Saida Sherahmad qizining hayot yo'li ham shu g'oyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ilmga intilish, Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat va ma'rifatli ayol timsoli yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyatini o'rganish jadid ayollarining o'zbek jamiyati rivojidagi o'rni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Uning ibratli yo'li bugungi yoshlar, ayniqsa qizlar uchun ilm olish, kasb egallash, el-yurtga foyda keltirish va milliy o'zlikni asrab-avaylash borasida muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyatini o'rganishda jadid ayollarining milliy uyg'onish jarayonidagi o'rnini, ularning ilm-ma'rifatga intilishi hamda jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini yorituvchi manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik harakati doirasida xotin-qizlar masalasi faqat savod chiqarish yoki maktab ta'limi bilan cheklanmagan, balki ayolning jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish, uni ongli, bilimli va ma'rifatli shaxs sifatida shakllantirish g'oyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bahrom Irg'ayev jadid ayollari haqida fikr yuritarkan, jadid bobolar xotin-qizlarga alohida hurmat va ehtirom ruhini uyg'otishga intilganini, qizlar ta'limiga o'g'il bolalar ta'limidan kam e'tibor qaratilmasligi zarurligini ta'kidlaydi. Bu qarashlar jadidchilik harakatida ayollar ta'limi millat kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinganini ko'rsatadi.

Saida Sherahmad qizi shaxsini o'rganishda Sherali Turdiyevning "Ma'rifat qaldirg'ochlari" nomli maqolasi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Muallif Germaniyada tahsil olgan turkistonlik talabalar faoliyatini tahlil qilar ekan, Saida Sherahmad qizini o'z ta'minoti bilan xorijda o'qigan yoshlar qatorida tilga oladi. Ushbu ma'lumot Saida Sherahmad qizining jadid ayollariga xos ilmga intilish, mustaqil fikrlash va milliy taraqqiyotga xizmat qilish g'oyalari bilan bog'liq shaxs ekanini asoslashga xizmat qiladi. Chunki XX asr boshlarida o'zbek qizining xorijda ta'lim olishi o'sha davr ijtimoiy muhiti uchun katta jasorat va yangicha dunyoqarash ifodasi edi.

Mavjud biografik ma'lumotlarda Saida Sherahmad qizining yoshlikdan ilmga qiziqqani, o'zbek qizlari uchun tashkil etilgan bilim yurtida tahsil olgani, keyinchalik Germaniyada o'qigani hamda Turkiyada muallimalik faoliyati bilan shug'ullangani qayd etiladi. Uning hayot yo'li jadid ayollarining ma'rifatparvarlik an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda ilmga sadoqat, Vatanga muhabbat, milliy o'zlikni saqlash va ayollar savodxonligini yuksaltirish kabi g'oyalar mujassamdir. Ayniqsa, uning uzoq yillar xorijda yashagan bo'lsa-da, ona yurtiga bo'lgan mehrini saqlab qolishi va muallimalik faoliyatini davom ettirishi uni ma'rifatli ayol timsoli sifatida baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Saida Sherahmad qizi hayoti jadid ayollarining umumiy tarixiy qismati va ma'rifat yo'lidagi intilishlari bilan bevosita bog'liqdir. U haqidagi manbalar orqali XX asr boshlarida o'zbek ayollarining ilm olishga bo'lgan munosabati, xorijda tahsil olish jarayoni, muallimalik faoliyati va milliy qadriyatlariga sodiqligi yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Shu sababli Saida Sherahmad qizi faoliyatini o'rganish jadid ayollari tarixini yoritish, ularning millat ma'naviy hayotidagi o'rnini anglash va ma'rifatparvar ayollar merosini ilmiy asosda baholash uchun muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini jadidchilik harakati, jadid ayollari faoliyati, xotin-qizlar ta'limi va ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarixiy-ilmiy nuqtayi nazardan o'rganishga qaratilgan yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyati alohida shaxs biografiyasi sifatida emas, balki XX asr boshlaridagi ijtimoiy-ma'rifiy jarayonlar, ayollar ta'limi va milliy uyg'onish harakati bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyiliga asoslanildi. Ushbu tamoyil Saida Sherahmad qizi faoliyatini u yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'rifiy muhiti bilan bog'liq holda yoritish imkonini beradi. Chunki jadid ayollarining ilm olishga intilishi, xorijda tahsil olishi va muallimalik faoliyati o'sha davr uchun oddiy holat emas, balki milliy tafakkur yangilanishining muhim ko'rinishi edi. Shuningdek, tadqiqotda biografik tahlil usulidan foydalanildi. Bu usul orqali Saida Sherahmad qizining hayot yo'li, ta'lim olishi, xorijdagi faoliyati, muallimalik kasbiga munosabati hamda vatan, millat va ma'rifat haqidagi qarashlari izchil o'rganildi. Biografik yondashuv shaxs hayotidagi muhim voqealarni umumiy tarixiy jarayonlar bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda manbashunoslik tahlili ham muhim o'rin tutadi. Mavzuga oid biografik ma'lumotlar, maqolalar, xotiralar va jadid ayollariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop materiallar o'zaro solishtirildi. Manbalar tahlili orqali Saida Sherahmad qizining jadid ayollari safidagi o'rnini, uning ilm-ma'rifatga munosabati hamda o'zbek ayollari tarixidagi ahamiyati aniqlashtirildi.

Qiyosiy-tahliliy usul yordamida Saida Sherahmad qizi faoliyati jadid ayollarining umumiy ma'rifatparvarlik harakati bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Bu orqali uning shaxsiy hayot yo'li va faoliyatida jadid ayollariga xos bo'lgan ilmga intilish, ijtimoiy faollik, milliy o'zlikni saqlash va avlod tarbiyasiga mas'uliyat bilan qarash kabi jihatlar namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, tadqiqotda tizimli yondashuvdan ham foydalanildi. Shunga ko'ra, Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyatini alohida faktlar yig'indisi sifatida emas, balki jadidchilik, ayollar ta'limi, xorijda tahsil olish tajribasi va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan bog'langan yaxlit jarayon sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Ta'kidlash joizki, tanlangan metodologik yondashuvlar Saida Sherahmad qizi faoliyatining tarixiy, ma'rifiy va ijtimoiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqotda tarixiylik, biografik tahlil, manbashunoslik, qiyosiy-tahliliy va tizimli yondashuvlarning qo'llanilishi mavzuni ilmiy asosda yoritish, jadid ayollari merosini chuqurroq anglash hamda Saida Sherahmad qizi siymosining milliy ma'rifat tarixidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyati jadid ayollar tarixida alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Uning ilm olishga intilishi, xorijda tahsil olishi, keyinchalik muallimalik faoliyati bilan shug'ullanishi XX asr boshlarida o'zbek xotin-qizlari orasida shakllangan ma'rifatparvarlik ruhining yorqin ifodasidir. Bu holat Saida Sherahmad qizi shaxsini faqat biografik ma'lumotlar doirasida emas, balki jadidchilik harakati, ayollar ta'limi va milliy uyg'onish jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jadid ayollar faoliyatida ilm-ma'rifatga intilish, jamiyatda ayolning o'rnini yuksaltirish, qizlar savodxonligini oshirish va millat kelajagiga xizmat qilish g'oyalari muhim o'rin egallagan. Saida Sherahmad qizi hayotida ham ana shu xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Uning o'zbek qizlari uchun tashkil etilgan bilim yurtida tahsil olishi, keyinchalik Germaniyada o'qishi va Turkiyada ta'lim sohasida faoliyat yuritishi o'sha davr ayollari uchun katta jasorat namunasi edi. Bu jihatlar uning jadid ayollariga xos ilg'or dunyoqarash, bilimga chanqoqlik va ijtimoiy faollik fazilatlariga ega bo'lganini tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, Saida Sherahmad qizi faoliyatida ilm olish shaxsiy manfaat yoki individual muvaffaqiyat vositasi sifatida emas, balki jamiyatga foyda keltirish, yosh avlodni ma'rifatli etib tarbiyalash va milliy taraqqiyotga hissa qo'shish omili sifatida namoyon bo'ladi. Uning muallimalik faoliyati bu borada alohida ahamiyatga ega. Chunki muallimalik kasbi jadid ayollari uchun nafaqat kasbiy faoliyat, balki millatni uyg'otish, savodxonlikni kengaytirish va yangi avlod dunyoqarashini shakllantirish vositasi sifatida qaralgan.

Saida Sherahmad qizining hayot yo'li jadid ayollar taqdiridagi murakkabliklarni ham ochib beradi. U xorijda bilim olgan, turli madaniy muhitlarda yashagan, ammo o'z milliy o'zligini, Vatanga bo'lgan muhabbatini va el-yurtga daxldorlik tuyg'usini saqlab qolgan. Uning maktublarida ona yurt sog'inchi, qarindoshlarga mehr, diydor istagi va vatan bilan ruhiy bog'liqlik kuchli seziladi. Bu holat jadid ayollar obrazida faqat ilmiy-ma'rifiy faollik emas, balki chuqur vatanparvarlik, milliy xotira va ma'naviy sadoqat ham muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida Saida Sherahmad qizi shaxsining yana bir muhim jihati uning bir necha xorijiy tillarni o'rganishga intilgani va turli madaniyatlar bilan muloqot qila olgani bilan bog'liq ekani aniqlandi. Bu xususiyat jadidchilik harakatining ilg'or dunyo tajribasini o'rganish, zamonaviy bilimlarni egallash va ularni milliy taraqqiyot manfaatlariga yo'naltirish g'oyalariga mos keladi. Saida Sherahmad qizi bu borada o'z davri ayollari orasida yangicha fikrlash va keng dunyoqarash egasi sifatida ajralib turadi.

Natijalar asosida aytish mumkinki, Saida Sherahmad qizi hayoti jadid ayollar harakatining amaliy ifodalardan biridir. Uning ta'lim olishi, xorijiy tajribaga ega bo'lishi, muallimalik faoliyati va milliy qadriyatlarga sodiqligi o'zbek ayollarining ma'rifat yo'lidagi intilishlarini yoritishda muhim o'rin tutadi. U o'z hayoti bilan ayollarning jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishi, ilm orqali o'zligini anglash va ma'rifatli avlod tarbiyasiga hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Saida Sherahmad qizi hayoti va faoliyati jadid ayollarining XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatida tutgan o'rnini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ilm olishga intilishi, xorijda tahsil olishi, muallimalik faoliyati bilan shug'ullanishi hamda milliy qadriyatlarga sodiq qolishi o'zbek ayollarining jamiyat taraqqiyotidagi faolligini namoyon etadi. Saida Sherahmad qizi timsolida jadid ayollarga xos bo'lgan bilimga chanqoqlik, jasorat, ma'naviy bardamlik va Vatanga muhabbat kabi fazilatlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Saida Sherahmad qizi merosi faqat tarixiy-biografik ahamiyatga ega bo'lib qolmay, milliy ma'rifat tarixini o'rganishda ham muhim manba sifatida baholanishi mumkin. Uning hayot yo'li orqali ayollar ta'limi, xorijiy tajribani egallash, milliy o'zlikni saqlash va yosh avlod tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashish kabi masalalar yaxlit holda namoyon bo'ladi. Shu bois Saida Sherahmad qizi faoliyatini o'rganish jadid ayollar merosini ilmiy asosda tahlil qilish va ularning o'zbek jamiyati taraqqiyotidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Dolimov, U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. – Toshkent: Noshir, 2012. – 384 b.
3. Dolimov, U. Jadidchilikning tamal toshi // Ziyouz.com.
4. Irzayev, B. Xorijda o'qigan o'zbek jadid ayollarining "aybi" nima edi? // Yangi O'zbekiston gazetasi. – 2023.
5. Qosimov, B., Yusupov, Sh., Dolimov, U., Rizayev, Sh., Ahmedov, S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 464 b.
6. Turdiyev, Sh. Ma'rifat qaldirg'ochlari // 1989.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.